



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№4



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 481 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 7-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoira Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Цифровизация социально-трудовых отношений: вызовы и перспективы для работников	18
Абдумухтаров Анваржон Акрамжонович	
O'zbekistonda faoliyat ko'rsatayotgan soliq to'lovchi yuridik shaxslarning iqtisodiy faoliyatini rag'batlantirish masalalari.....	26
To'xtaboyev Nuriddin Isomiddin o'g'li	
Ecotourism in Protected Areas: A Literature Review.....	32
Ismoilova Maftuna Mamat qizi	
Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirishning hududiy xususiyatlari.....	38
Primova Shaxlo Jumayevna	
Statistik baholash va ekonometrik modellashtirish orqali biznes rivojlanish tendensiyalarini samaradorligini baholash.....	43
Xabibullayev Ibrohim, Saidova Marhabo Xabibullo qizi	
Tijorat banklarida xususiy kapital hisobi va auditini takomillashtirish	52
Qodirova Zilola Maxmud qizi	
Qo'shilgan qiymat solig'i ma'muriyatchiligining ilg'or xorij tajribasi.....	57
Erkayev Nodir Xudayberdiyevich	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotni joriy etish holati va asosiy yo'nalishlari.....	71
Madraximova Zulfiya Nurmatovna, Ishankulova Komila Kurbanovna, Ortiqboeva Aziza Xolmurza qizi, Omonkulova Ro'zigul Akmaljon qizi	
Challenges and opportunities in implementing green economy indicators in uzbekistan's industrial sector under the fourth industrial revolution.....	76
Shodmonov Ruslan Golib ugli, Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich	
Rivojlangan mamlakatlarga ishchi kuchi oqimi va O'zbekiston mehnat bozoridagi o'zgarishlar.....	89
Tilabova Kumush Farhod qizi	
Mamlakatda "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish	95
Yuldashboyev Azizulloh Bunyodbek o'g'li, Matkarimov Inomjon Baxtiyorovich	
"Ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni samarali rejalashtirish va boshqarish"	101
Bauyetdinov M.J., Medetbayeva D.T.	
Enhancing utilization and minimization of renewable energy systems in uzbekistan	105
To'irova Hamida Umedovna	
Tijorat banklari daromadini oshirishda aholining savodxonligi va xulq atvorining roli	114
Shakhlo Davirova	
2020–2024-yillarda o'zbekistondagi iqtisodiy o'sish dinamikasi	120
Akbarov Nodir, Ibodullayev Navro'zbek	
O'zbekistonda xalqaro moliyaviy institutlarning yashil moliyalashtirish jarayonidagi roli va strategik yo'nalishlari	125
Gulmira Axmadjonova Xabibulla qizi	
Sug'urta tizimiga raqamli texnologiyalarning ta'siri	133
Uzaqova Kamola Bexzodovna, Yahyoyev Bahridinxon Bahroil o'g'li	
Improving payment services practices in commercial banks: strategies for efficiency and security.....	138
Mamayusuf Abdusamatov	
Jahon moliya tizimi: asosiy tendensiyalar va rivojlanishning innovasion yo'nalishlari	143
Ataniyazov Jasurbek Xamidovich	
Повышение конкурентоспособности экологического туризма Узбекистана путём развития всесезонных горных туристических центров.....	150
Ахмедходжаев Равшан Темурович	
Xo'jalik yurituvchi subyektlar tashqi iqtisodiy faoliyatida valyuta operatsiyalarini takomillashtirish	157
Safarov Alisher Ibrohim o'g'li	



Oliy ta'lim tizimini miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari asosida baholashning kompleks metodologiyasi.....	163
Hakimova Mushtariybonu Hamid qizi, Bozorova Muazzam Hamid qizi	
Ko'chmas mulkni boshqarish samaradorligini baholashning uslubiy yondashuvlari	167
Mirdjalilova Dildora Shuxratovna	
Xizmatlar sohasini rivojlantirishda kichik biznesning ahamiyati va uning innovatsion rivojlantirishdagi muhim xususiyatlari	173
Ulasova Oygul Baxtiyorovna	
Результаты долгосрочного прогнозирования и стратегического анализа эффективной организации современного управления жилищным фондом.....	178
Бердиева Дилфуза Ахатовна	
Improving long-term assets accounting and auditing	184
Gulboy Yusupov	
Davlat budjeti va xususiy sektor ishtirokida oliy ta'limni moliyalashtirishning optimal modeli.....	189
Bozorov Alisher Ro'zimurodovich	
Xufyona iqtisodiyotni qisqartirishda soliq islohotlari va raqamli texnologiyalar: O'zbekiston tajribasi va xalqaro yondashuvlar.....	193
Choriev Makhmayokub, Karimov Mamurbek, Xamrayev Olimjon, Urazov Mansur	
Bank aksiyalarining bozordagi narx dinamikasi va unga ta'sir etuvchi omillar	200
Nomozov Samandar Shuxrat o'g'li	
Sanoatda rivojlanish kafolati: moliyaviy boshqaruvni raqamli transformatsiya orqali avtomatlashtirish.....	206
To'qlijev Abdirauf Bahodir o'g'li	
Inson kapitalini rivojlantirishning jamiyat farovonligi, aholi daromadlariga ta'siri.....	214
Bozorova Saxobat Abdujapparovna	
Анализ конкурентной среды: методология, примеры и этапы процесса.....	219
Садикова Раъно Абдуллаевна	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarning nazariy asoslari va ular bilan ishlash mexanizmining zaruriyati	225
Salixova G.J	
Iqtisodiyotda energiya xavfsizligiga erishishning xorij tajribasi.....	230
Samandarov Og'abek Alisher o'g'li	
Measuring methodologies of influence of the esg factors	235
Tolipova Feruza Alisherovna	
Совершенствование налогового администрирования в условиях экологически устойчивого развития.....	240
Омонов Отажон Журакулович	
Moliyaviy vositalar asosida erkin iqtisodiy zonalarni rivojlantirish strategiyasini takomillashtirish	249
Quziev Ravshan Ramazanovich	
Методологические аспекты внедрения управленческого учета в университетах Узбекистана.....	253
Каршиева Мохинур Олим кизи	
Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish (tibbiyot muassasalari misolida)	257
Tulyaganov Abdumalik Abdiraximovich	
Умные города как фактор экономического развития.....	261
Нозима Кахрамоновна Хакбердиева	
Перспективы зеленого фактора экономического роста в Республики Узбекистан.....	266
Исламова Насиба Улугбек кизи, Абдурашидов Отабек Улугбекович, Мамасалиева Мукаддас Ибадуллаевна	
Qurilish korxonalarida sifat menejmentini joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish	270
Ergashev O'tkir, Saidov Mash'al Samadovich	
Xorazm viloyatida eksportni rivojlantirish uchun potensial imkoniyatlar va ularni baholash.....	275
Fozil Xolmurotov	
Maishiy xizmatlar sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy jihatlarini.....	282
Quliyev Begimqul Melikovich	



O'zbekiston hududlarida chakana kreditlashning o'sishi.....	289
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
Empowering uzbekistan's grain enterprises: innovative strategies for sustainable growth and operational efficiency.....	292
Kurbanova Dildora Abdurakhmanovna	
Kapital investitsiyalarga doir axborotlarni xususiy kapital to'g'risidagi hisobotda aks ettirish uslubiyatini takomillashtirish	298
Boronov Bobur Farxodovich, Muxammadiev Zarrux Umarovich	
To'qimachilik korxonalarining yashil iqtisodiyotga o'tishi va yengil sanoat korxonalarini muqobil energiyadan samarali foydalanish yo'llari	303
Xolbekova Feruzaxon Rasulovna, Jalolova Aziza Jalol qizi	
Research on the effects of interest rate, inflation rate and gross domestic product (GDP) on the level of foreign direct investment (FDI) inflows (evidence from Uzbekistan).....	307
Azimov Shakhzod	
Organik mahsulotlar eksportini rag'batlantirishda maqsadli bozorlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari.....	314
Xidirov Shohrux Bobir o'g'li	
Korxona iqtisodini barqarorligini ta'minlash masalalari.....	319
Abdullayev Maqsud Abdumaxmudovich	
Внедрение инновационных методов управления человеческих ресурсов в строительных компаниях.....	323
Джураева Гузаль Шавкатовна	
Sug'urta zararlarini baholashda sun'iy intellektni qo'llash istiqbollari	328
Shoraximova Zilola Nasirdjonovna	
O'zbekiston Respublikasi mahalliy budjet tizimini moliyalashtirish masalalari	332
Qo'ldoshev Diyor O'rol o'g'li	
Raqamli texnologiyalar asosida raqamli ekotizimlar va ularning biznes-jarayonlarga ta'sirini aniqlashga ilmiy qarashlar tahlili	336
Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	
Innovatsion salohiyatni oshirish asosida qurilish materiallari sanoati korxonalarining boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish	342
Xaydarova E'zoza Shukurullayevna	
Aholi turmush darajasini dinamik kontekstli normallashtirish va moslashuvchan vaznlar usuli orqali baholash	352
Xolto'rayev Islom Ilhomovich, Ollokulova Feruza Mansurovna	
O'zbekiston Respublikasida xufiyona iqtisodiyotini qisqartirish va mamlakat rivojlanishiga uning ta'siri.....	358
Baxtiyorov Sherali Muzaffarovich	
Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini aholi tomonidan xarid qilish va kompensatsiya ajratish jarayonlarini raqamlashtirish hamda tizimlar integratsiyasi istiqbollari.....	362
Ochilov Abdujabbor Akramovich	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirishda chet el tajribasining afzalliklari.....	369
Raxmatullayeva Shaxnoza Xamidovna, Akbarova Iroda Samatovna	
Qurilishda loyiha boshqaruvi konsepsiyasining mazmuni	375
Pulatov Shaxron Axmedovich	
Loyiha budjeti va uning ijrosini ta'minlash masalalari.....	379
Murodova Mohigul Chori qizi, Xamidov Odil Davurovich	
Qishloq xo'jaligidagi chorvachilik tarmog'ining iqtisodiy faoliyatini o'rta muddatli statistik prognozlarini tuzish (Andijon viloyati misolida).....	390
Iskandarov Davlatbek Xursanbekovich, Urishev Baxtiyor Abdusamatovich, Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligini baholash va rivojlantirish yo'llari.....	397
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li, Shodiyev Fazliddin Qalandar o'g'li, Holmirzayeva Gulruh Akbarovna	
Fond bozorida kompaniyaning investitsion jozibadorligini baholash uslubiyoti	403
Yulduz Usmanova	
Jahon bozoriga kirishda elektron bozorlarning ahamiyati	411
Hamroyeva Umida	



Comparative statistical analysis of foreign trade indicators of the Republic of Uzbekistan	415
Abdujalilova Bibisora Bakhodir kizi	
Yaxshi korporativ boshqaruv orqali aktsiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini oshirish: metodologik yondashuv.....	423
Urinov Bobur Nasilloevich	
JAS – barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning yapon modeli vositasi	423
Baynazarov Elmurod Erkinovich	
Xususiy banklarning depozit operatsiyalarini mustahkamlash yo'llari	435
Olimov Abror Axadjon o'g'li	
The impact of digital financial technologies on the financial system.....	439
Yahyoyev Bahriddinxon Bahroil o'g'li, Pardayev Olim Mamayunosovich	
Korxona eksport salohiyatini oshirishning "yashil" marketing mexanizmi	443
To'rayev Shohrux Halimovich	
O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda turistik oqim mavsumiyligini boshqarish yo'llari	448
Fayazov Muxiddin Sobirovich	
Sanoat korxonalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish bo'yicha xalqaro tendensiyalar	453
Bobobekov Ergash Abdumalikovich	
Ayollar tadbirkorligining tarixi: O'zbekiston va dunyo bo'yicha rivojlanishi.....	459
Burxanova Sabo Tulanovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida investorlar risklarini pasaytirishni takomillashtirish yo'llari.....	466
Xalilov Umid Ishtemirovich	
Korxona moliyaviy ko'rsatkichlari tahliliga fundamental yondashuv.....	470
Dilshodjon O'rinov, Sanobar Ismoilova	
Iqtisodiy o'zgarishlar davrida korxonalar moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi omil va mezonlari	475
Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	



IQTISODIY O'ZGARISHLAR DAVRIDA KORXONALAR MOLIYAVIY BARQARORLIGINING TA'MINLANISHI OMIL VA MEZONLARI

Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi

Toshkent to'qimachilik va yengil
instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorlik ta'minlanishiga ta'sir etuvchi omillar va ularning baholanish masalalari ko'rib o'tilgan. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar guruhlanib, moliyaviy oqimlarning muvozanatini aks ettiradigan ko'rsatkichlar asoslab berildi. Shuningdek, maqolada moliyaviy salohiyatni aniqlashning mavjud ko'plab yondashuvlari tahlil qilinib, bu borada amaliy fikrlar va xulosalar bildirilgan. Iqtisodiy o'zgarishlar davrida xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorlik ta'minlanishiga ta'sir etuvchi omillarni ichki va tashqi guruhlariga ajratish tavsiya etilib, ularning mazmun va mohiyati ochib berildi.

Kalit so'zlar: iqtisodiy o'zgarishlar, moliyaviy barqarorlik, absolyut va nisbiy ko'rsatkichlar, aktivlar va passivlar tarkibi, daromadlar va xarajatlar darajasi, ichki va tashqi omillar.

Abstract: The article examines factors influencing the financial stability of business entities and issues of their assessment. The indicators characterizing financial stability are grouped and the indicators reflecting the balance of financial flows are substantiated. The article also analyzes many existing approaches to determining financial literacy and provides practical opinions and conclusions on this matter. During the period of economic transformations, it was recommended to divide the factors influencing the financial stability of business entities into internal and external groups, their content and essence are disclosed.

Key words: economic changes, financial stability, absolute and relative indicators, structure of assets and liabilities, level of income and expenses, internal and external factors.

Аннотация: В статье рассматриваются факторы, влияющие на финансовую устойчивость субъектов хозяйствования, и вопросы их оценки. Сгруппированы показатели, характеризующие финансовую устойчивость, и обоснованы показатели, отражающие сбалансированность финансовых потоков. В статье также анализируются многие существующие подходы к определению финансовой состоятельности и приводятся практические идеи и выводы по этому поводу. Рекомендовано разделить факторы, влияющие на финансовую устойчивость субъектов хозяйствования в периоды экономических преобразований, на внутренние и внешние группы, раскрыты их содержание и сущность.

Ключевые слова: экономические изменения, финансовая устойчивость, абсолютные и относительные показатели, структура активов и обязательств, уровень доходов и расходов, внутренние и внешние факторы.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5630-son¹ Farmonida Mamlakatda iqtisodiy o'sishni ta'minlash, raqobatbardoshlikni oshirish, iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish, investitsiyalarni, avvalambor iqtisodiyotning bazaviy va tarkibiy asosini tashkil etuvchi sohalarga jalb qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga yo'naltirilgan keng ko'lami islohotlar amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Zamonaviy iqtisodiyotning real obyektlari hisoblangan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy faoliyati turli biznes vakillarining doimo diqqat markazida bo'lib, ular bilvosita yoki bevosita korxonaning uning faoliyat natijalaridan manfaatdordir. Rejali iqtisodiyotning bozor munosabatlariga o'tishi munosabati bilan korxona va tashkilotlarning samarali faoliyat yuritish shartlari o'zgardi. Ya'ni, bozordagi raqobatda o'zini saqlab qolishni ta'minlash uchun korxonalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, mahsulot va xizmatlarning

1 <https://lex.uz/docs/-4160392>



raqobatbardoshligini ta'minlash, boshqaruvning yangi va yanada samarali shakllarini joriy etish balki o'z korxonasining hamda asosiy raqobatchilarining moliyaviy holatini o'rganishi, tushunishi, tahlil qila bilishi va haqiqiy bahosini to'g'ri aniqlay olishi zarurdir.

Biroq, bozor munosabatlari sharoitida korxonaning muvaffaqiyatli ishlashini ta'minlash uchun faqat korxonaning moliyaviy holatini real baholash yetarli emas. Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati barqarorligini ta'minlashning eng muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lgan korxonaning raqobatbardoshligini oshirish moliyaviy barqarorlikni to'g'ri va malakali boshqarish orqali ta'minlanadi. Jumladan, korxonaning moliyaviy barqarorligi, likvidligi va to'lov qobiliyati darajasini to'g'ri tahlil qilishi uning moliyaviy aktivlarini muvaffaqiyatli boshqarishning asosiy shartidir. Korxona moliyaviy barqarorligining ta'minlanishi mavjud resurslar samarali boshqaruvi funksiyalarini amalga oshirishning muhim bir elementi bo'lib, moliyaviy risklarni kamaytirish va iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar bozor konyunkturasi kutilmagan o'zgarishlari sharoitida ko'proq mustaqildir. Shu sababli, bozor munosabatlari sharoitidagi kutilmagan o'zgarishlar tufayli nochor bo'lish yoki bankrotlikka duch kelish ehtimoli kamroq. Mamlakatdagi beqaror bozor konyunkturasida korxonaning faoliyat yuritish kafolati va barqaror ishlashining asosi, uning iqtisodiy barqarorligi va to'lov qobiliyatidir. Bu esa, o'z navbatida, korxona mablag'laridan samarali foydalanish orqali kelajakda rivojlanishni ta'minlashga qodir bo'lgan resurslar holatini aks ettiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Korxonalar moliyaviy barqarorligi va unga ta'sir etuvchi omillarning turlari, mazmun va mohiyati, ularni baholash usullari, mezonlari to'g'risida ko'plab xorijiy va respublikamiz olimlari ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Professor A.Burxonov[2] fikricha "Korxonaning moliyaviy holati o'z va qarz mablag'larning optimal muvozanatiga bevosita bog'liq. Moliyaviy strategiyani to'g'ri shakllantirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shunday qilib, moliyaviy barqarorlik korxona faoliyatini moliyalashtirish manbalariga bevosita bog'liq. Shu munosabat bilan alohida ta'kidlash lozimki, iqtisodiy tizimning eng muhim tarkibiy qismi hisoblangan korxonalarning moliyaviy barqarorligi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishishda muhim ahamiyatga ega. Chunki, moliyaviy barqarorlik va unga erishish xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyat yuritish qobiliyatini ta'minlashning garovi hamda uning mustahkam mavqega ega bo'lishining asosi sifatida xizmat qiladi. Shu nuqtayi nazardan, moliyaviy barqarorlik, korxonaning o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi moliyaviy imkoniyatlarini aniqlash muhim iqtisodiy muammolar jumlasiga kiradi.

Professor E.Akramov[3] moliyaviy mustahkamlik tushunchasi va uning ko'rsatkichlarini tavsiya etgan va unga ta'sir etuvchi omillarni asoslab bergan. Shuningdek, u moliyaviy barqarorlik toifasi korxonaning moliyaviy holatini zaruriy bir xil darajada turishi va pasaymasligini ifodalovchi ko'rsatkich ekanligini ta'kidlaydi.

Professor T.Malikov[4] ta'kidlashicha, xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy barqarorligini umumiy (avtonomiya koeffitsiyenti, qarz kapitalining konsentratsiyalashuv koeffitsiyenti, qarz va o'z mablag'larining nisbati koeffitsiyenti) va nisbiy ko'rsatkichlar (zaxira va xarajatlarning o'z kapitali bilan ta'minlanganlik koeffitsiyenti, moliyaviy mustaqillik koeffitsiyenti, o'z kapitalining manyovrlilik koeffitsiyenti) ifodalaydi.

Professorlar M.Pardayev va B.Isroilovlar[5] fikricha, "Moliyaviy barqarorlikni korxona o'z mablag'lari va barcha mablag'larning nisbati sifatida ifodalab, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini quyidagi guruhlariga ajratadilar:

- o'z mablag'lari (xususiy kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- chetdan jalb etilgan mablag'lar (kapital) bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- harakatdagi mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan bog'liq ko'rsatkichlar;
- aylanma mablag'lar bilan bog'liq ko'rsatkichlar".

Professor O.Vyatkina[6] ning ta'kidlashicha, "Moliyaviy barqarorlik – bu kompaniyaning to'lov qobiliyatiga ta'sir qiluvchi moliyaviy ahvoli darajasining ichki aksidir. Xulosa qilib aytganda, moliyaviy barqarorlik aktivlar va passivlar tarkibi, daromadlar va xarajatlarning darajasi, to'lovlar va tushumlar darajasi o'rtasidagi muvozanat asosida aniqlanadi".

Professorlar T.Gurnovich va A.Zotkinalar[7] fikricha, "Korxonalarning moliyaviy barqarorligi o'zgaruvchan ichki va tashqi muhitda o'z faoliyatini davom ettirish va rivojlantirish, hayotiy va to'lov qobiliyatini saqlab qolish, kelajak uchun investitsiya loyihalarini ta'minlash va maqbul darajadagi xavfga ega bo'lish qobiliyati bilan belgilanadi. Yaxshi moliyaviy holatga kapitalning maqbul tuzilmasini yaratish orqali erishiladi, unda o'z kapitali majburiyatlardan oshib ketadi, bu yaxshi balans, yuqori rentabellik va yetarli likvidlikdir.

Har bir korxona uchun moliyaviy salohiyat muhim rol o'ynaydi, bu mavjud resurslardan foydalanish samaradorligini va rivojlanish imkoniyatlarini baholashga imkon yaratadi. Moliyaviy (iqtisodiy) salohiyatni



aniqlashning ko'plab yondashuvlari mavjud. Mintaqalar, tarmoqlar, korxonalar yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy (iqtisodiy) salohiyati barcha mavjud moddiy va intellektual resurslarni birlashtiradi. Boshqacha qilib aytganda moliyaviy (iqtisodiy) salohiyat xodimlarning ko'nikmalari, qobiliyatlari va iqtisodiyot resurslari yig'indisidan iboratdir. Moliyaviy salohiyatni ko'tarishda turli xil qarama-qarshi omillar ta'sir etib, ular muvozanatlashganda ijobiy yoki salbiy bo'lgan jarayonlarni keltirib chiqarishi mumkin[8].

Moliyaviy barqarorlik – bu korxona bo'sh mablag'lari va moliyaviy resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarishni ta'minlash qobiliyatidir. Muayyan mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmatlar ko'rsatish bilan bir qatorda, korxona faoliyatida olingan kreditlarga xizmat ko'rsatishni ham o'z ichiga olishi kerak. Moliyaviy barqarorlik korxonaning uzoq davr davomida to'lovga qodirliligini anglatadi. Moliyaviy barqarorlik mutlaq (absolyut) va nisbiy ko'rsatkichlar asosida baholanadi.

Absolyut ko'rsatkichlarga moliyaviy zaxiralarning holati shuningdek, ularni tashkil topish manbalari kiradi. Korxona faoliyati davomida uning zaxiralari o'z aylanma mablag'lari va jalb qilingan mablag'lar (turli ssuda va kreditlar) hisobidan doimiy ravishda to'ldirib boriladi. Zaxiralarni tashkil etuvchi manbalarni aniqlash uchun korxonaning o'z mablag'lari mavjudligi hamda qarzga olingan mablag'larning manbalarini mavjudligi to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish kerak. Zaxiralar shakllanadigan asosiy manbalarining hajmini hisobga olish kerak (o'z mablag'lari, aylanma mablag'larning yetishmasligi yoki ortiqchaligi, moliyaviy barqarorlik mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlar bo'yicha baholanadi).

Nisbiy ko'rsatkichlar asosan korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun asos hisoblanadi. Korxona moliyaviy barqarorligi tahlil qilishda nisbiy ko'rsatkichlardan foydalanish analitik usuldir. Bu shuningdek, analitik xarajatlar, byudjet ijrosi va balans tahlilini o'z ichiga oladi.

Korxona faoliyatining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish uchun ma'lumot beradigan asosiy ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi: moliyaviy leveraj va moliyaviy mustaqillik. Shuningdek, bu yerda o'z mablag'lari bilan ta'minlanish koeffitsiyenti va ularni boshqarish koeffitsiyenti, mulkning harakatchanlik koeffitsiyenti va investitsiyalarni qoplash koeffitsiyenti kiradi. Zaxiralarni qoplash koeffitsiyenti va qisqa muddatli qarz koeffitsiyenti ham muhim ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Xo'jalik yurituvchi subyektlar strategik salohiyatini oshirishga quyidagi iqtisodiy ko'rsatkichlar o'z ta'sirini o'tkazadi: investitsion muhit, iqtisodiy samaradorlik darajasi, marketing va logistika, ishlab chiqarishning o'ziga xos texnologik xususiyatlari, resurslar hajmi, intellektual va innovatsion salohiyat, boshqaruv qarorlari, xodimlarning individual salohiyati[9].

Moliyaviy barqarorlik xo'jalik yurituvchi subyektlarning iqtisodiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Moliyaviy barqarorlikni ifodalovchi ko'rsatkichlarga korxonaning moliyaviy mustaqilligi darajasi, to'lov qobiliyatini va moliyaviy oqimlarning muvozanatini aks ettiradigan ko'rsatkichlar kiradi. Bu ko'rsatkichlardan tashkilotning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini har tomonlama tahlil qilishda foydalaniladi[11].

Moliyaviy barqarorlikni ilmiy asoslash va uning ko'rsatkichlarini tasniflash uchun asosan o'rganilayotgan obyektning (soha va tarmoqning) o'ziga xos xususiyatlari va ixtisosligidan kelib chiqqan holda yondashishni talab etadi. Masalan, qurilish materiallari sanoati korxonalari misolida moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari tizimini shakllantiramiz. Ushbu tarmoq korxonalarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- korxonalarning fond sig'imi yuqoriligi;
- katta hajmdagi investitsiyalarning talab etilishi;
- narxlarning monopol xarakterga ega ekanligi;
- transport xarajatlari yuqoriligi;
- asosiy bozor ichki talabning qondirilishiga qaratilganligi;
- ishlab chiqarish majmuining xomashyo bazasi hududida joylashganligi;
- texnologik jarayonlarning murakkabligi;
- ish kuchiga talabning yuqoriligi va boshqalar.

dan kelib chiqqan holda, fikrimizcha, moliyaviy barqarorlikni mutlaq va nisbiy ko'rsatkichlarga (moliyaviy koeffitsiyentlarga) ajratgan holda tasniflash maqsadga muvofiqdir. Jumladan, moliyaviy barqarorlikning mutlaq ko'rsatkichlar tizimini zaxira va xarajatlar hajmi o'rtasidagi farq ko'rinishida yuzaga keluvchi zaxira va xarajatlarni shakllantiruvchi mablag'lar manbalarining ortiqchiligi yoki yetishmasligi sifatida umumiy talqin etish lozim. Bunda zaxira va xarajatlar o'z aylanma mablag'lar, uzoq va qisqa muddatli kreditlar va qarzlarni, kreditorlik qarzlarning ta'minotchilar qarzlari qismi kabi manbalardan ta'minlanishi nazarda tutiladi.

Yuqorida keltirilgan fikrlardan ko'rinib turibdiki, o'rganilayotgan moliyaviy barqarorlikning tavsiflovchi ko'rsatkichlar, ularning aniqlash mezonlarini xilma-xilligi, korxonaning moliyaviy barqarorligini tahlil qilishning yagona uslubiyati yo'qligidan dalolat beradi. Chunki, professor A.Burxonov ta'kidlab o'tganidek, moliyaviy barqarorlikni amaliy asoslovchi omillar va uning ifodalovchi ko'rsatkichlarini tarkibi o'rganilayotgan obyektning (soha va tarmoqning) o'ziga xos ishlab chiqarish xususiyatlariga bevosita bog'liq holda amalga oshiriladi.

Shuningdek, ingliz olimi K. Xeddervik ham korxonalar moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlarni ilmiy asoslash va uni hisoblashda korxonaning o'ziga xos xususiyatlari ya'ni, uning qaysi tarmoqda faoliyat



yuritishi, ishlab chiqarish texnologiyasi va ixtisosligiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqligini ko'rsatib o'tadi[10].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida ana shu ilmiy tadqiqot usullaridan, xususan, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy o'zgarish yoki iqtisodiyotning transformatsiya qilinishi – bu ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimlarining o'zgarishi, iqtisodiyotni yangi modelga o'tish yo'lida sifat jihatidan yangilanishidir. Iqtisodiyotning transformatsiya qilinishini maqsadi, iqtisodiy erkinlik va shu asosda ijtimoiy yo'naltirilgan, samarali iqtisodiy tizimni yaratishdir. Iqtisodiy o'zgarishning xususiyatlari:

o'zgarishlar ko'lemi (masalan, ma'muriy-buyruqbozlikdan bozor iqtisodiyotiga o'tish);

o'zgarishlar qamrovi (mavjud tuzum asoslarini ya'ni, mulkiy munosabatlarni, jamiyatning siyosiy va huquqiy tizimlarini, jamoatchilik ongini qamrab oladi);

iqtisodiyotni liberallashtirish (iqtisodiy faoliyat va iqtisodiy ko'rsatkichlar ya'ni, narx, ish haqi, foiz stavkalari, valyuta kurslari ustidan davlat nazoratini bekor qilinishi yoki zaiflashtirilishi);

milliy iqtisodiyotni tarkibiy qayta qurish (turli mulkchilik shaklidagi tadbirkorlik tuzilmalari, nodavlat va notijorat korxonalari, birjalar, tijorat banklari, fermer va klaster xo'jalik shakllarining paydo bo'lishi);

ochiq iqtisodiyotni yaratish (xalqaro mehnat taqsimotiga tizimiga kirish va jahon bozorida tegishli o'rinni egallash);

ijtimoiy sohani isloh qilish (pensiya tizimi, majburiy tibbiy sug'urta tizimi, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, uy-joy kommunal xizmat ko'rsatish sohalarida islohotlarni amalga oshirish.

Yuqorida keltirib o'tilgan iqtisodiy o'zgarishning xususiyatlari respublikamiz iqtisodiyotida bosqichma-bosqich huquqiy – me'yoriy hujjatlarga asoslangan xolda amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 6-iyuldagi "Ma'muriy islohotlar doirasida raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–108-sonli² Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–6207-sonli³ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 8-apreldagi "Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida"gi PF–101-sonli⁴ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 19-apreldagi "Davlat mulkini boshqarish sohasi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ayrim hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish, shuningdek, ba'zilarini o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblash to'g'risida"gi PF–67-sonli⁵ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-yanvardagi "Davlat aktivlarini boshqarish, monopoliyaga qarshi kurashishni tartibga solish tizimini va kapital bozorini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF–5630-son⁶ Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-maydagi "Baliqchilik tarmog'ini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–2939-son⁷ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-yanvardagi "Respublikada ipakchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3472-sonli⁸ qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohalarini rivojlantirish va eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ–3693-sonli⁹ qarori shular jumlasiga kiradi.

Bugungi iqtisodiy o'zgarishlarning yadrosi hisoblangan xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyaviy barqarorligi jamiyat taraqqiyotida katta ahamiyatga egadir. Moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari xo'jalik yurituvchi subyektlarning uzoq muddatli hayotiyliigi va barqarorligi haqida tushuncha beradi. Mintaqalar, korporatsiyalar, aksiyadorlik jamiyatlari yoki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining moliyaviy salohiyati barcha mavjud moddiy hamda intellektual resurslarni birlashtiradi. Shuningdek, xodimlarning ko'nikmalari va qobiliyatlari hamda iqtisodiyot resurslari yig'indisini ifodalaydi.

2 <https://lex.uz/docs/-6525087>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-5371091>

4 <https://lex.uz/docs/-5947775>

5 <https://lex.uz/uz/docs/-6899480>

6 <https://lex.uz/docs/-4160392>

7 <https://lex.uz/ru/docs/-3188263>

8 <https://lex.uz/uz/docs/-3501061>

9 <https://lex.uz/docs/-3720454>



Bizning fikrimizcha, moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilishda ularni ichki va tashqi ko'rsatkichlarga bo'lib o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Yuqorida keltirilgan iqtisodchi olimlarning fikrlaridan kelib chiqib, ichki darajadagi omillar ko'rsatkichlari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

- xo'jalik yurituvchi subyektning o'z kapitalining yetarli miqdori;
- xo'jalik yurituvchi subyektning to'lovga qodirlik qobiliyati;
- xo'jalik yurituvchi subyektning likvidlik koeffitsiyenti;
- xo'jalik yurituvchi subyektning investitsiyalarni jalb qilish darajasi;
- xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi kreditorlardan xolisligi;
- xo'jalik yurituvchi subyektning mustaqil ijobiy balansga ega bo'lishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektning tashqi ta'sir etuvchi omillardan qat'iy nazar faoliyat yuritish qobiliyati.

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi tashqi omil ko'rsatkichlariga xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan hududning ijtimoiy-iqtisodiy darajasini belgilovchi shart-sharoitlarni ko'rsatib o'tish mumkin.

Moliyaviy barqarorlikka ta'sir etuvchi tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaning geografik joylashuvi va tabiiy sharoiti;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaning transport- kommunikatsiya tizmi holati;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaning mahalliy aholisini kelib chiqish tarixi, mentaliteti va madaniyati;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaholining kasb madaniyati;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaning tabiiy resurslari va relyefining tarkibiy tuzilishi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqada yaratilgan innovatsion va investitsion muhit;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaning ma'muriy-boshqaruv tizimi;
- xo'jalik yurituvchi subyektlar joylashgan mintaqaning soliq siyosati.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatining baholashni uzoq hamda qisqa muddatga ajratish mumkin. Qisqa muddatda baholash uchun ustuvor xususiyatlari bo'lib, korxonaning uzluksizligi va uning to'lovga qodirlik qobiliyati hisoblanadi. Uzoq muddatli istiqbolda korxonaning moliyaviy barqarorligi muhimroqdir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilib aytganda korxonaning istiqboldagi taraqqiyotini aniqlashda muhim ko'rsatkich hisoblangan moliyaviy barqarorlikka erishishga ta'sir etuvchi omillarning xususiyatlari, mezonlari, baholash usullari va iqtisodchi olimlarning fikrlariga qarab bir necha guruhga ajratish mumkin.

Jumladan:

- xo'jalik yurituvchi subyekt faoliyatini moliyalashtirish manbalariga qarab;
- xo'jalik yurituvchi subyektning umumiy va nisbiy ko'rsatkichlariga nisbatan;
- xo'jalik yurituvchi subyekt mablag'lari va ularning tashkil topish manbalarining tarkibiga ko'ra;
- xo'jalik yurituvchi subyekt moliyaviy holatidan kelib chiqib;
- xo'jalik yurituvchi subyektning o'ziga xos ishlab chiqarish xususiyatidan kelib chiqib;
- iqtisodiyotning amaldagi modellaridan kelib chiqib;
- ta'sir etish doirasiga ko'ra.

Demak, moliyaviy barqarorlik korxona istiqbolini belgilashda eng muhim ko'rsatkichlaridan biri deb hisoblash mumkin. Korxonaning daromad darajasi uni xarajatlaridan oshsagina, moliyaviy barqarorlik muhokama qilinishi mumkin bo'ladi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyekt o'z pul mablag'larini erkin boshqarish, undan samarali foydalanish imkoniyatiga ega bo'lsa hamda doimiy ravishda xizmatlar ko'rsatish yoki ta'minot, mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonlarini yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, biz bunday korxonalarni moliyaviy barqaror deb hisoblashimiz maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi <https://www.lex.uz/uz/>
2. Burxanov A. U. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6- noyabr-dekabr, 2018-yil.
3. Akramov E.A. Korxonalarning moliyaviy holati tahlili. - T.: Moliya, 2003.-224 b.
4. Malikov T.S. Moliya: xo'jalik yurituvchi subyektlar moliyasi. O'quv qo'llanma / i.f.d., prof. A.V. Vahobovning umumiy tahriri ostida. -T.: IQTISOD-MOLIYA, 2009. - 257 b.
5. Pardayev M.Q., Isroilov B.I. Moliyaviy tahlil: (Uslubiy ko'rgazmalar va tavsiyalar albomi). - T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1999. -197 b.
6. Вяткина О.И. Финансовая устойчивость предприятия (организации) / О.И. Вяткина // «Научно-практический журнал Аллея Науки» -2022. - №8(24).
7. Гурнович Т.Г., Зоткина А.Е. Финансовая устойчивость организации и пути ее совершенствования // Энигма. - 2019. № 8.



8. Guryanova L., Klebanova T., Trunova T., «Modeling the financial strategy of the enterprise in an unstable environment», «Econom studies» journal, vol. 3, 2017.
9. Михайлик, Д. П. «Стратегия управления финансовым потенциалом» / Д. Михайлик. Национальное экономическое развитие и модернизация: опыт Польши и перспективы для Украины: коллективная монография, т. 1, издательство «baltija publishing», 2017. – 435 с.
10. Хеддервик К. Финансовый и экономический анализ деятельности предприятий / Международная организация труда: пер. с англ. Д.П.Лукичева и А.О.Лукичевой / Под ред. Ю.Н.Воропаева. - М.: Финансы и статистика, 1996. – 192 с.
11. www.klerk.ru



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
